


7-dars. Misol va masalalar yechish




1. Har bir to'g'ri to'rtburchakning **perimetrini** toping, agar:

a) yuzi 36 cm^2 , bo'yi 9 cm bo'lsa;



b) yuzi 54 cm^2 , eni 6 cm bo'lsa.



2. Tushirib qoldirilgan raqamlarni toping.

$$\begin{array}{r} 345 \\ - 1342 \\ \hline 959 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 635 \\ + 937 \\ \hline 500 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 327 \\ \times 70474 \\ \hline \end{array}$$



3. Tenglamalarni yeching. **Noma'lum komponentlarni** ayting.

a) $a - 320 = 90$

b) $b : 40 = 300$

d) $720 + y = 900$



4. **Xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to'g'ri hisoblang.

$$\begin{array}{r} 7983 \\ - 1922 \\ \hline 0862 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 24486 \\ - 24441 \\ \hline 2445 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 45608 \\ - 42660 \\ \hline 3048 \end{array}$$



5. Ifodalang:

a) **sentnerlarda**: 2 t, 7 t, 54 t, 115 t, 2 500 kg, 7 000 kg, 17 800 kg;

b) **tonnalarda**: 80 q, 500 q, 1 300 q, 4 000 kg, 15 000 kg, 60 000 kg.



6. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang. Nimani sezdingiz?

a) $50\,103 - (35\,073 : 9 + 2\,845) + 123 \cdot 2$

b) $(50\,103 - 35\,073) : 9 + 2\,845 + 123 \cdot 2$



7. 7 ta yuk mashinasida 14 t 7 q don tashildi. Shunday 9 ta yuk mashinasida necha sentner don tashiladi?



7 ta mash.	-	14 t 7 q
9 ta mash.	-	? q



8. 3 ta bir xil yuk mashinasida 240 yashik olma tashildi. 400 yashik olmani tashish uchun nechta shunday yuk mashinasi kerak bo'ladi?



9. Tenglamalarni yeching.

a) $(90 - x) \cdot 10 = 480$

b) $620 : (a + 24) = 10$

10. Ota bozordan narxi 78 000 so'mdan 2 kg go'sht, narxi 14 000 so'mdan 5 kg guruch va narxi 17 000 so'mdan 7 kg shakar sotib oldi. Agar otada 900 000 so'm bo'lgan bo'lsa, uning qancha puli qoldi?

